



SUG'URTA TASHKILOTLARINING MAJBURIYATLARINI BUXGALTERIYADA TAN OLIH, BAHOLASH VA MOLIVAVIY HISOBOTLARDA YORITIB BERISH TARTIBI

Xaliqnazarova Gulnaz Jalgasbay qizi

Tashkent davlat iqtisodiyot universiteti PhD talabasi

E-mail: xaliqnazarovagulnaz@gmail.com

ORCID:0009-0002-0877-015X

Annotatsiya: Ushbu maqolada sug'urta tashkilotlarining majburiyatlarini buxgalteriyada tan olish, baholash va moliyaviy hisobotlarda yoritib berishning nazariy hamda amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Sug'urta faoliyatining o'ziga xos xususiyati sababli sug'urtalovchi majburiyatlarining muhim qismini sug'urta shartnomalari bo'yicha kelgusidagi to'lovlar tashkil etadi. Tadqiqotda sug'urta majburiyatlarini to'g'ri aks ettirishda IFRS 17 talablarining ahamiyati, sug'urta shartnomalari bo'yicha majburiyatlarni dastlabki va keyingi baholash, sug'urta xizmatlari natijalarini moliyaviy hisobotlarda ochib berish masalalari tahlil qilindi. O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanish ko'rsatkichlari asosida majburiyatlarni hisobga olish tizimining shaffofligi va ishonchligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: sug'urta tashkiloti, sug'urta majburiyatlari, buxgalteriya hisobi, IFRS 17, sug'urta shartnomalari, baholash, moliyaviy hisobot, sug'urta mukofoti, sug'urta to'lovi, sug'urta zaxiralari.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of recognizing, valuing, and disclosing the obligations of insurance organizations in accounting and financial statements. Due to the specific nature of insurance activities, a significant portion of the insurer's liabilities consists of future payments under insurance contracts. The study analyzed the significance of IFRS 17 requirements for the correct reflection of insurance obligations, the preliminary and subsequent valuation of obligations under insurance contracts, and the disclosure of insurance service results in financial statements. Based on the development indicators of the insurance market of Uzbekistan, proposals have been developed to increase the transparency and reliability of the liability accounting system.

Keywords: insurance organization, insurance liabilities, accounting, IFRS 17, insurance contracts, valuation, financial statements, insurance premium, insurance payment, insurance reserves.

Абстрактный: В данной статье исследуются теоретические и практические аспекты признания, оценки и раскрытия обязательств страховых организаций в бухгалтерском учете и финансовой отчетности. В силу специфики страховой деятельности значительную часть обязательств страховщика составляют будущие выплаты по договорам страхования. В исследовании проанализированы важность требований МСФО 17 в правильном отражении страховых обязательств, первичная и последующая оценка обязательств по договорам страхования, раскрытие результатов страховых услуг в финансовой отчетности. На основе показателей развития страхового рынка Узбекистана разработаны предложения по повышению прозрачности и надежности системы учета обязательств.

Ключевые слова: страховая организация, страховые обязательства, бухгалтерский учет, МСФО 17, договоры страхования, оценка, финансовая отчетность, страховая премия, страховая выплата, страховые резервы.

Kirish (Введение/Introduction).

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda majburiyatlarni to'g'ri hisobga olish va baholash muhim ahamiyatga ega. Sug'urta kompaniyasi tomonidan qabul qilingan risklar kelgusida sug'urta hodisasi yuz berganda moliyaviy to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini yuzaga keltiradi. Shu sababli sug'urta majburiyatlarining buxgalteriya hisobida o'z vaqtida va ishonchli aks ettirilishi nafaqat kompaniyaning moliyaviy holatini, balki sug'urtalanuvchilar manfaatlarini himoya qilish nuqtayi nazaridan ham muhimdir.

O'zbekiston sug'urta bozori so'nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. 2024-yilda mamlakatda qariyb 10 mln ta sug'urta shartnomasi tuzilgan, yig'ilgan sug'urta mukofotlari 9,8 trln so'mni, sug'urta to'lovlari esa 2,2 trln so'mni tashkil etgan. Sug'urtalovchilarning jami aktivlari 11,8 trln so'mga yetgan [11]. 2025-yilda esa sug'urta mukofotlari hajmi 13,46 trln so'mga yetgani va yillik o'sish 37,8 foizni tashkil etgani qayd etilgan [5]. Sug'urta bozorining kengayishi kompaniyalarning kelgusidagi majburiyatlarini to'g'ri baholash va moliyaviy hisobotlarda yetarli darajada ochib berish masalasining dolzarbligini yanada oshiradi.

O'zbekistonda moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlarga muvofiq lashtirish jarayonida sug'urta tashkilotlari uchun IFRS talablarini qo'llash alohida ahamiyat kasb etadi. 2020-yildagi PQ-4611-son qarorga muvofiq sug'urta tashkilotlari 2021-yildan buxgalteriya hisobini xalqaro

standartlar asosida tashkil etishi va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotlarini IFRS asosida tuzishi belgilangan [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Sug'urta majburiyatlarini hisobga olish masalasi xalqaro buxgalteriya standartlarida alohida o'rin egallaydi. IFRS 17 "Insurance Contracts" sug'urta shartnomalarini tan olish, baholash, taqdim etish va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritib berishning yagona tamoyillarini belgilaydi [1; 2]. Mazkur standart sug'urta majburiyatlarini faqat nominal summa asosida emas, balki kelgusidagi pul oqimlari, risk va vaqt qiymatini hisobga olgan holda baholashga asoslanadi [1; 7].

IFRS 17ning asosiy yondashuvlaridan biri sug'urta shartnomalari bo'yicha kelgusidagi pul oqimlarini joriy qiymatga keltirish va noaniqlikni risk tuzatmasi orqali hisobga olishdan iborat. Bu yondashuv sug'urtalovchining haqiqiy moliyaviy majburiyatlarini yanada aniqroq aks ettirish imkonini beradi [1; 7; 8].

Sug'urta tashkilotlari majburiyatlarini tarkibida sug'urta shartnomalari bo'yicha majburiyatlar, qayta sug'urta shartnomalari bilan bog'liq majburiyatlar, kreditorlik qarzlari, xodimlar oldidagi majburiyatlar va boshqa moliyaviy majburiyatlar mavjud bo'lishi mumkin. Biroq sug'urta tashkilotining asosiy o'ziga xosligi aynan sug'urta shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarning yuqori ulushga egaligidir [1; 7].

O'zbekistonning sug'urta bozorini tartibga soluvchi vakolatli organi — Istiqbolli loyihalar milliy agentligi sug'urta faoliyatini litsenziyalash, bozor statistikasi va tahlilini yuritish hamda sug'urta tashkilotlari faoliyatini tartibga solish funksiyalarini amalga oshiradi [5; 6].

Shuningdek, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari ochiqqligi ham muhim hisoblanadi. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra sug'urta tashkilotlari yillik moliyaviy hisobotlarini auditorlik xulosasi bilan birga e'lon qilishi lozim [4; 6].

Tadqiqot metodologiyasi (Методы / Methods).

Tadqiqotda sug'urta tashkilotlari majburiyatlarini hisobga olish va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish tartibini o'rganishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, guruhlash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini IFRS 17 xalqaro standarti, O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotga oid normativ-huquqiy hujjatlar, Istiqbolli loyihalar milliy agentligining sug'urta bozori statistikasi hamda ilmiy adabiyotlar tashkil etdi.

Tahlil jarayonida sug'urta majburiyatlarining iqtisodiy mohiyati, ularni tan olish mezonlari, dastlabki va keyingi baholash tartibi hamda moliyaviy hisobotlarda ochib berish talablari o'rganildi. Shuningdek, O'zbekiston sug'urta bozorining 2024–2025-yillardagi rivojlanish ko'rsatkichlari majburiyatlarni hisobga olish tizimining amaliy ahamiyatini asoslash uchun qo'llanildi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Sug'urta tashkilotining majburiyatlarini hisobga olishda birinchi navbatda majburiyatning yuzaga kelish manbasini aniqlash talab etiladi. Sug'urta shartnomasi tuzilishi natijasida kompaniya sug'urta qoplamasini kelgusida taqdim etish majburiyatini oladi. Shu sababli sug'urta shartnomalari bo'yicha majburiyatlarni hisobga olish oddiy kreditlik qarzlardan farqli ravishda aktuar hisob-kitoblari va ehtimollik baholaridan foydalanishni talab qiladi.

1-jadval.

Sug'urta tashkilotlari majburiyatlarining asosiy turlari

Majburiyat turi	Mazmuni	Hisobga olishning asosiy xususiyati
Sug'urta shartnomalari bo'yicha majburiyatlar	Sug'urtalanuvchilar oldidagi kelgusidagi majburiyatlar	Aktuar hisob-kitoblar asosida baholanadi
Qoplamalar bo'yicha majburiyatlar	Sodir bo'lgan sug'urta hodisalari bo'yicha to'lovlar	Kutilayotgan to'lovlar hisobga olinadi
Kelgusidagi sug'urta xizmatlari majburiyati	Hali bajarilmagan sug'urta xizmatlari	Shartnoma muddati davomida tan olinadi
Qayta sug'urta bo'yicha majburiyatlar	Qayta sug'urtalovchilar bilan hisob-kitoblari	Shartnoma shartlariga muvofiq aks ettiriladi
Kreditlik qarzlari	Yetkazib beruvchi va boshqa kreditlar oldidagi qarzlari	Shartnoma va hisob-kitob hujjatlari asosida
Soliq majburiyatlari	Byudjet oldidagi majburiyatlar	Soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblanadi
Xodimlar oldidagi majburiyatlar	Ish haqi va boshqa to'lovlar	Hisoblangan summalar asosida tan olinadi

Jadvaldan ko'rinadiki, sug'urta tashkilotlari majburiyatlarining eng muhim qismi sug'urta shartnomalaridan kelib chiqadi. Ushbu majburiyatlarni baholashda kelgusidagi sug'urta to'lovlarining hajmi, vaqt omili va sug'urta risklari hisobga olinishi zarur.

Sug'urta majburiyatlarini tan olish

Sug'urta majburiyatlarini tan olishda sug'urta shartnomasining mavjudligi, kompaniyaning shartnoma bo'yicha majburiyatni bajarishi va

kelgusidagi iqtisodiy resurslarning chiqib ketish ehtimoli asosiy mezonlardan hisoblanadi.

IFRS 17 doirasida sug'urta shartnomalari guruhlariga ajratilib, ularning kelgusidagi pul oqimlari va sug'urta xizmatlari bilan bog'liq natijalar alohida baholanadi. Bu esa har bir shartnoma bo'yicha alohida hisob-kitob qilishdan ko'ra, o'xshash risk xususiyatlariga ega shartnomalarni tizimli ravishda guruhlash imkonini beradi.

Sug'urta majburiyatlarini baholash

Sug'urta majburiyatlarini baholash jarayonida kutilayotgan sug'urta to'lovlari, sug'urta mukofotlari, xarajatlar, diskontlash va risk bo'yicha tuzatishlar hisobga olinadi. IFRS 17ning asosiy maqsadlaridan biri kompaniyaning sug'urta shartnomalari bo'yicha kelgusidagi pul oqimlarini iqtisodiy jihatdan asoslangan tarzda aks ettirishdir.

Baholashda uchta muhim komponentni ajratish mumkin:

1. kelgusidagi pul oqimlarining joriy bahosi;
2. sug'urta riskiga oid tuzatish;
3. sug'urta shartnomasi bo'yicha xizmat ko'rsatish natijasini aks ettiruvchi marja.

Bunday yondashuv moliyaviy hisobot foydalanuvchilariga kompaniyaning kelgusidagi majburiyatlarini va sug'urta faoliyatining rentabelligi to'g'risida aniqroq ma'lumot beradi.

2-jadval.


Sug'urta majburiyatlarini buxgalteriyada aks ettirish bosqichlari

Bosqich	Asosiy jarayon
1	Sug'urta shartnomasini aniqlash
2	Shartnomalarni guruhlash
3	Kelgusidagi pul oqimlarini baholash
4	Risk bo'yicha tuzatish kiritish
5	Majburiyatni moliyaviy hisobotda tan olish
6	Hisobot sanasida qayta baholash

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, sug'urta majburiyatlarini buxgalteriyada aks ettirish izchil va o'zaro bog'liq bosqichlardan iborat. Dastlab sug'urta shartnomalari aniqlanib, o'xshash risk xususiyatlariga ega shartnomalar guruhlanadi. Keyingi bosqichda kelgusidagi pul oqimlari baholanib, sug'urta risklari bo'yicha tegishli tuzatishlar kiritiladi. Shundan so'ng majburiyatlar moliyaviy hisobotlarda tan olinadi va hisobot sanasida qayta baholanadi. Yakuniy bosqichda majburiyatlarning tarkibi, o'zgarishi va ular bilan bog'liq risklar moliyaviy hisobot foydalanuvchilariga tushunarli shaklda ochib beriladi. Bu jarayon sug'urta tashkilotining moliyaviy holatini haqqoniy va shaffof aks ettirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston sug'urta bozorining ayrim ko'rsatkichlari


Sug'urta majburiyatlarini hisobga olish masalasining amaliy ahamiyatini O'zbekiston sug'urta bozorining o'sish sur'atlari ham ko'rsatadi. 2024-yilda sug'urta mukofotlari 9,8 trln so'mni, sug'urta to'lovlari 2,2 trln so'mni tashkil etgan. 2025-yilda esa sug'urta mukofotlari 13,46 trln so'mga yetgan [5; 11].



1-rasm. O'zbekiston sug'urta bozorining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari

Jadvaldan ko'rinadiki, sug'urta mukofotlarining o'sishi sug'urtalovchilar zimmasidagi kelgusidagi majburiyatlar hajmining ham kengayishiga olib keladi. Shu sababli sug'urta majburiyatlarini faqat

hisobga olish emas, balki ularni muntazam ravishda qayta baholash ham muhimdir.



2-rasm. 2025-yilda umumiy sug'urta sektoridagi yetakchi kompaniyalarning bozor ulushi

Bu ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda umumiy sug'urta segmentida Apex Insurance 32%, O'zbekinvest 12% va Gross Insurance 7% ulushga ega bo'lgan; uch kompaniyaning jami ulushi 51%ni tashkil etgan.

Pie chartdan ko'rinadiki, bozorning eng katta ulushi Apex Insurance hissasiga to'g'ri kelgan. Uchta yirik kompaniyaning jami 51 foizlik ulushi umumiy sug'urta segmentida bozor konsentratsiyasi mavjudligini ko'rsatadi. Bunday sharoitda sug'urta kompaniyalari majburiyatlarini to'g'ri baholash, to'lov qobiliyatini saqlash va moliyaviy hisobotlarda yetarli darajada ochib berish raqobatbardoshlikning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotlarda sug'urta majburiyatlarini yoritish

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy hisobotlarida majburiyatlar foydalanuvchilarga kompaniyaning moliyaviy holatini to'liq baholash imkonini beradigan darajada ochib berilishi kerak. Bunda sug'urta shartnomalari bo'yicha majburiyatlarning miqdori, ularning o'zgarishi, sug'urta risklari va kelgusidagi pul oqimlariga ta'sir qiluvchi omillar muhim hisoblanadi.

IFRS 17 doirasida sug'urta shartnomalari bo'yicha ma'lumotlarning ochib berilishi foydalanuvchilarga kompaniyaning sug'urta faoliyati, risklari va moliyaviy natijalarini tushunish imkonini berishga qaratilgan. IFRS Foundation IFRS standartlarini sug'urta shartnomalari bo'yicha tan olish, baholash, taqdim etish va ochib berish talablarini belgilovchi xalqaro moliyaviy hisobot tizimining bir qismi sifatida yuritadi.

Moliyaviy hisobotlarda quyidagi ma'lumotlarni ochib berish maqsadga muvofiq:

- sug'urta shartnomalari bo'yicha majburiyatlarning balans qiymati;
- davr boshidagi va oxiridagi majburiyatlar o'rtasidagi o'zgarishlar;
- sug'urta xizmatlari natijalari;
- sug'urta risklari to'g'risidagi ma'lumotlar;
- qayta sug'urtalash bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- muhim aktuar baholashlar va taxminlar;
- likvidlik va to'lov qobiliyatiga ta'sir qiluvchi omillar.

O'zbekiston qonunchiligida ham sug'urta tashkilotlari yillik moliyaviy hisobotlarini auditorlik xulosasi bilan birga e'lon qilishi belgilangan. Bu talab sug'urta kompaniyalari faoliyatining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sug'urta tashkilotlarining majburiyatlarini buxgalteriyada to'g'ri tan olish va baholash kompaniyaning moliyaviy barqarorligi, to'lov qobiliyati hamda hisobotlarning ishonchligini ta'minlashning muhim shartidir [1; 7].

Sug'urta bozorining kengayishi bilan kompaniyalar zimmasidagi sug'urta majburiyatlari ham ortib boradi. O'zbekistonda 2025-yilda sug'urta mukofotlari 13,46 trln so'mga yetgani bozor hajmining sezilarli o'sayotganini ko'rsatadi [5].

IFRS 17 talablari asosida majburiyatlarni baholash sug'urta kompaniyasining kelgusidagi pul oqimlari, risklari va sug'urta xizmatlari natijalarini yanada shaffof aks ettirish imkonini beradi [1; 7; 8]. Shu bilan birga, xalqaro standartlarni amaliyotga joriy etish aktuar hisob-kitoblar, axborot texnologiyalari va buxgalterlarning professional malakasiga bo'lgan talabni oshiradi [8; 9]. Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Sug'urta tashkilotlarida IFRS 17 talablariga moslashtirilgan hisob siyosatini muntazam takomillashtirish.
2. Sug'urta majburiyatlarini baholashda aktuar hisob-kitoblarning sifatini oshirish.
3. Sug'urta shartnomalari bo'yicha ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan axborot tizimlarida yuritish.
4. Moliyaviy hisobotlarda sug'urta majburiyatlari va ular bilan bog'liq risklarni batafsilroq ochib berish.
5. Qayta sug'urtalash operatsiyalarining hisobini takomillashtirish.
6. Buxgalter va aktuariylarning IFRS 17 bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish.
7. Sug'urta majburiyatlarini baholashda ma'lumotlarning sifatini va prognozlarining ishonchligini kuchaytirish.
8. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy hisobotlarini raqamlashtirish va elektron tahlil imkoniyatlarini kengaytirish.

Umuman olganda, sug'urta majburiyatlarini hisobga olish tizimini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish O'zbekiston sug'urta bozorining shaffofligi, moliyaviy barqarorligi va investorlar hamda sug'urtalanuvchilar ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/ References):

1. IFRS Foundation. IFRS 17 Insurance Contracts. – London: IFRS Foundation.
2. IFRS Foundation. IFRS Standards and Related Materials. – London: IFRS Foundation.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining 2025-yil yakunlari bo'yicha umumiy ko'rsatkichlari. – Toshkent, 2026.
6. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. Sug'urta bozorining statistikasi va tahlili. – Toshkent.
7. IASB. Basis for Conclusions on IFRS 17 Insurance Contracts. – London: IFRS Foundation.
8. Deloitte. iGAAP: IFRS 17 Insurance Contracts. – London.
9. KPMG. First Impressions: IFRS 17 Insurance Contracts. – KPMG International.
10. PwC. IFRS 17: Insurance Contracts. – PricewaterhouseCoopers.
11. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. 2024-yil faoliyat yakunlari bo'yicha sug'urta bozori ko'rsatkichlari. – Toshkent.
12. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. Sug'urta tashkilotlari reytingini aniqlash va yuritish tartibi. – Toshkent, 2025.